

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA “HADIS” NAMUNALARINI
O‘QITISH USULLARI

*Sayfilloyeva Diyorabonu, Saydullayeva Aziza,
O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabalari
Tel: 91 535 63 04
Email: sayfullayevadiyora2002@gmail.com*

Annotatsiya; Dunyoda hech bir buyuk shaxsning so‘zi yoki u haqidagi ma’lumotlar, payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning so‘zlari va hayotlari singari aniqlik bilan saqlanib qolimagan. Hattoki, o‘zimiz ham bundan bir necha kun oldin o‘zimiz aytgan so‘zlarni so‘zma so‘z aytib berishimiz amri mahol. Lekin sahabalar va ulardan keyingi mas’uliyatli musulmon ulamolarning sharaflı xizmatlari sababli, hadislar Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning og‘izlaridan qanday eshitilgan bo‘lsa, xuddi shundayligicha bizgacha yetib kelgan. Ilm shunday bir ne’matki uni egallahar birimiz uchun ham farz, ham qarzdir. Sababi ilmli inson hech qachon xoru zorlik ko‘rmaydi. Xoh dunyoviy, xoh diniy ilm bo‘isin, ikkalasini mushtarak tarzda o‘rganish lozim. Ilmli kishi ma’rifatparvar, odob-axloqli, komil insondir. Ma’rifatparvar, olimu fuzalolargina insoniyatni yorug‘ yo‘l tomon boshlay oladilar. Ilm o‘rganmasdan hech narsaga erisholmaymiz. Insonning chiroyini namoyon qiluvchi go‘zallik bu uning odob-axloqidir.

Kalit so‘zlar; Hadis, hayotiy hikmatlar, ota-onas, farzand, tarbiya, fazilat, rozi, Alloh, tarbiya, e’tiqod va boshqalar.

Ma’naviy tarbiyaning katta qismi ma’naviy qadriyatlar, jumladan, ajdodlarimiz pand-nasihat, o‘gitlaridan olinadi. Bu pand-nasihat va o‘gitlar esa ulardan bizga qoldirilgan kitoblardagi bitiklarda o‘z aksini topgan. Haqiqiy o‘qimishli kitobxon esa ma’nana ozuqa bo‘lib, mazmunan uning ma’naviyatini yuksaltirishga qodir kitobni boshqalaridan osongina ajrata oladi. Ana shu

mazmundagi kitoblarni o‘qish esa go‘yo fozilu olimlar suhbatidan bahramand bo‘lish bilan tengdir. Jumladan, shunday mazmundagi kitoblar sirasiga “Hadis”larni kiritish mumkin. Afsus, bugun ko‘p yoshlarimiz bu asarlarning mazmunidan bexabar qolmoqdalarki, bu aynan ayrim yoshlarning “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona, bilib-bilmay, tushunib-tushunmay ergashayotganlarida bilinmoqda desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Boshlang‘ich sinflarning “Ona tili va o‘qish savodxonligi”, “Tarbiya”, darsliklarida “Hadis”lardan namunalar kiritilgan. Bu namunalarni ilmi tahlil, ya’ni matn mazmunini tahlil etish usuli orqali o‘quvchilarga o‘rgatilsa, bolalarning tushunishlari oson bo‘ladi.

Bu kabi masalalar kitobda ixcham hikoyatlar, rivoyatlar, she’r va latifalar, maqol va hikmatlar yordamida bayon qilinadi. Jumladan, “Go‘zal fazilat – inson husni” nomi bilan quyidagi parcha keltirilgan:

“Farzand aqli va donobo‘lsa, ota-onaning mehr-muhabbatini ado etadi. Agar farzand ota-onaning ko‘nglini sal bo‘lsa-da ranjitsa, ularning qalbini azoblagan bo‘ladi. Ko‘rdingki, ota-onsa seni jon-dili bilan parvarishlab voyaga yetkazdi. Agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hech yaxshilikka sazovor emassan. Chunki har kishi ota-onaning yaxshiligini bilmasa, birovning yaxshiligiga baho berolmaydi”. Matn tahlili asosida o‘quvchilarga farzandning ota-onsa oldidagi vazifasi nimalardan iborat ekanligi uqtiriladi. Matndagi “ranjitmoq” so‘zini bolalarga “xafa qilmoq”, “ko‘nglini qoldirmoq” tarzida yanada sodda va aniqroq qilib tushuntirish lozim bo‘ladi. Ya’ni, o‘qituvchi bolalarga ota-onasini ranjitmaslik uchun o‘zini har taraflama yaxshi tutishi, ularni hurmat qilishi, so‘zlarini qadrlashi, gaplarini ikki qilmasligi, a’lo baholarga o‘qishi, yaqinlari va do‘stlari bilan inoq bo‘lishi zarurligini uqtiradi.

Matndagi “...ota-onang seni jon-dili bilan parvarishlab voyaga yetkazdi”, degan o‘rinlarda ota-onaning farzand oldidagi burchi, mehr-muhabbati ifodalanadi. Ya’ni har bir ota-onaning bolasini ham jismonan, ham aqlan pishiq bo‘lib tarbiyalanishidagi mehnatlari ko‘zda tutiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, yosh kitobxonlarimiz bo'sh vaqtlarida bunday mazmundagi asarlarni o'qib o'z ma'naviyatlarini mohiyatan boyitadilar. Chunki jamiyatning ertangi kunini tinch va obod bo'lishi, eng avvalo, yoshlarimiz olayotgan, o'zlashtirayotgan ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Qaysi xonodon, mahalla, oilada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha xonodon, mahalla, oila ahil-totuvlikka oshno, topgan-tutganida baraka bo'ladi. O'z-o'zidan yurt obodligi va ozodligi ham mustahkamlanib, yuksalib boraveradi.

Dunyoda hech bir buyuk shaxsning so'zi yoki u haqidagi ma'lumotlar, payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning so'zlari va hayotlari singari aniqlik bilan saqlanib qolinmagan. Hattoki, o'zimiz ham bundan bir necha kun oldin o'zimiz aytgan so'zlarni so'zma so'z aytib berishimiz amri mahol. Lekin sahabalar va ulardan keyingi mas'uliyatli musulmon ulamolarning sharaflı xizmatlari sababli, hadislar Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning og'izlaridan qanday eshitilgan bo'lsa, xuddi shundayligicha bizgacha yetib kelgan.

Bu o'rinda Hadis matnining sharhiga katta ahamiyat berish lozim. Chunki Hadis tili o'ta murakkab bo'lib, har bir ibora zamirida chuqur diniy-tarixiy, filologik, falsafiy tushunchalar o'rin olgan. Shuning uchun uning mazmunini sharh va izohlarsiz anglatish qiyin. Nabiy sollallohu alayhi vasallam dedilar:

"Robbning roziligi otaning roziligidagi va Allohning g'azabi otaning g'azabidadir". Sharhi: Demak, ota-onas nomiga sazovor bo'lgan shaxs borki, dinimizda ular ehtiromga loyiq zotlar sifatida qadrlanadi. Yuqoridagi hadisi sharif matnida kelgan "Robbning roziligi" otaning roziligi va "Allohning g'azabi" otaning g'azabida ekanining o'zi ham, Islomda ularning qadri qanchalar yuksak ekaniga dalolat qilib turibdi. Imom Termiziy bu hadisi sharifni mavquf deganlar. Ota deyilganda o'zining asl ota va bobosi kiradi. Ota-onani rozi qilishlik bilan Allohning roziligiga erishiladi. Ularni g'azablantirish bilan Allohning g'azabiga duchor bo'linadi. Agar bu amr va qaytariqlar farzandning shaxsiga zulm bo'lsa ham, Alloh taoloning shariatiga xilof bo'lmasa, farzand savob umidida ota onaning bu ishiga sabr qiladi. Ibn Abbas raziyallohu anhudan qilingan rivoyatda

shunday deyiladi: “Bir muslimon insonning muslimon ota-onasi bo‘lsa, ularga yaxshilik qilib, uning savobini kutgan holda tong ottirgan bo‘lsa, Alloh taolo unga jannatning ikki eshigini ochadi. Agar faqat biri bo‘lsa bir eshikni ochadi. Agar farzand ota-onadan birining g‘azabini chiqqargan bo‘lsa, undan o‘sha shaxs rozi bo‘lmaqunicha, Alloh rozi bo‘lmaydi”, dedilar. “Ota-ona unga zulm qilgan bo‘lsa hammi?” – deyildi. “Zulm qilgan bo‘lsalar ham” – dedilar.

Imom Tahoviy: "Farzand muboh narsalarda bo‘ysunadi. Nahy qilingan narsalarda emas", deydilar.

Tohir Fataniy: “Agar ikkovlari dunyoviy ishlarda unga zulm qilsalar, ko‘nadi va bo‘ysunadi, oxirat ishlarida emas” degan.

Imom G‘azzoliy: “Ko‘pchilik ulamolar ota onaning itoati shubhali narsalarda vojibligini aytganlar. To‘liq haromda vojib bo‘lmaydi. Chunki, shubhani tark qilish vara’ga kiradi.Ota onaning itoati esa majburiydir”, deganlar.

Ulamolar yana quyidagilarni aytadilar: “Agar ota-onaning haqqiga barobar rioya qilish mumkin bo‘lmay qolsa, ulug‘lash va ehtirom ma’nosida ota ustun qo‘yiladi. Chunki, nasab undandir. Xizmat va in’om yuzasidan onaning haqqi ustun qo‘yiladi. Misol uchun, ota-ona tashqaridan kirib kelganda ota uchun o‘rindan turiladi. Farzand biror narsa hadya qiladigan bo‘lsa onasidan boshlaydi. Farzand ota-onadan faqat bittasiga nafaqa berishga qodir bo‘lsa, onasiga beradi.

Demak ota-onani rozi qilish bu dunyoda ham, oxiratda ham faqat va faqat yaxshilikka sabab bo‘lishini unutmaslik lozim.

“Onani rozi qilish haqida” quyidagi parcha keltirilgan:

Bir kishi Rasulullohdan: “Men yaxshiligidan kimga qilsam bo‘ladi?“ deb so‘rabdi. “Onangga“, debdilar Rasululloh.U kishi shu savolni uch marta qaytaribdi.Rasululloh “Onangga“, deyaveribdilar.To‘rtinchi marotaba so‘rabdi. Shunda: “Otangga va yaqin bo‘lgan qarindoshlar!“ debdilar Rasululloh. Chunki aql bilan ish tutgan farzand ota-onani izzat va hurmatlashi lozimdir.Chunki ular farzand uchun o‘limga ham tayyor turadilar.Ota-onaning ishi farzandni parvarish qilish va yaxshilikni o‘rgatishdir.

Padari buzrukvorimiz hamda munis onaxonlarimizning hurmatini joyiga qo‘yish biz Sharq xalqlariga xos odat. Ota-onaga hurmat bu ona yurtga bo‘lgan hurmat ramzi hamdir. Shu boisdan ko‘plab hadislarda ota-onaga mehr-muhabbatli, oqibatli, sodiq bo‘lish, qarindoshlik rishtalari xususida so‘z yuritiladi. Kimki, o ‘z ota-onasini ranjitib, unga ozor yetkazsa, unga, albatta, o‘z farzandidan shu javob qaytadi. Ota-onaning tirikligida qadriga yetish va o‘z burchini ado etish har bir farzand burchidir. Qarindoshlik majburiyatları e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Chunki ular sizning qavmlaringiz. Qarindoshlar bilan yaxshi-yomon kunda birga bo‘lish, doimiy bordi-keldi qilish jonjigarlik rishtalarini mustahkamlaydi. Qarindoshini unutgan odam o ‘zligini yo ‘qotgan hisoblanadi. Kimki ota-onasining roziligini olgan bo‘lsa, unga qanday yaxshi! Alloh uning umrini uzaytiradi.

Ilm shunday bir ne’matki uni egallahar birimiz uchun ham farz, ham qarzdir. Sababi ilmli inson hech qachon xoru zorlik ko‘rmaydi. Xoh dunyoviy, xoh diniy ilm bo‘isin, ikkalasini mushtarak tarzda o‘rganish lozim. Ilmli kishi ma’rifatparvar, odob-axloqli, komil insondir. Ma’rifatparvar, olimu fuzalolargina insoniyatni yorug‘ yo‘l tomon boshlay oladilar. Ilm o‘rganmasdan hech narsaga erisholmaymiz. Insonning chiroyini namoyon qiluvchi go‘zallik bu uning odob-axloqidir. Ilm olish, odob-axloqli bo‘lish, do‘stga sadoqat, vafodorlik kabi fazilatlar quyidagi hadislarda bayon etiladi:

“Ilmning ofati – esdan chiqarmoqlik va ilmgan rag‘bati bo‘Imagan kishilarga o‘rgatib, uni zoye ketkazmoqlikdir”. *Sharhi: Ya’ni, Payg‘ambar s.a.v. ilm ofati – uni esdan chiqarib, unga rag‘bat ehtiyoji bo‘Imagan kishilarga o‘rgatib xor qilmaslikni ta’kidlaydilar.*

“Garchi Xitoyda bo‘lsa ham ilmgan intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo‘minga farzdir”. *Sharhi: Payg‘ambarimiz ummatlariga uzoq o‘lkada bo‘lsolaring ham ilm o‘rganishga intilinglar, chunki ilm olishga astoydil kirishish har bir mo‘min uchun farz hisoblanadi, deganlar.*

“Sadaqaning afzali mo‘min kishi ilm o‘rganib, so‘ng uni boshqa mo‘min birodarlariga ham o‘rgatishidir”. *Sharhi: Aslida sadaqa o‘ziga to‘q kishining*

muhtoja ko 'rsatgan ehtiromi sanaladi. Bu hadisda ilm o'rgangan kishining o'z ilmini boshqalarga ham o'rgatishda baxillik qilmasligi ta'kidlanadi, shundagina eng oliv himmatli sadaqa beruvchi saxiy degan maqomga erishilishi uqtiriladi. “So‘zda sehr bor, she’rda esa hikmat”. Sharhi: So‘z inson dilini yayratadi, har xil holatga tushiradi. Shundan bo‘lsa kerak unda sehr bor. She’r nozik qalbni junbushga keltiradi. Hikmatga boyligi ham shundadir.

“Allohdan foydali ilmni so‘ranglar. Foydasizidan esa chetlashinglar”. Sharhi: Allohdan faqat foydali, o‘rganishga loyiq ilmni so‘rash joizdir. Foydasiz ilmni o‘rganmasdan iloji boricha yiroqlashish lozim.

‘Ilm o‘rganish har bir mo‘min uchun farzdir. Ilm tolibi uchun hamma narsa, hatto dengizdagи baliqlar ham gunohini so‘rab istig‘for aytadi. Sharhi: Har bir mo‘min uchun ilm o‘rganish farz. Ilm tolibi uchun barcha narsa, shuningdek, dengizdagи baliqlar ham gunohini so‘rab kechirim so‘rashadi.

‘Bir soatgina ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro‘zadan afzaldir”. Sharhi: Mo‘min uchun bir soat ilm o‘rganish bir kechalik toat-ibodatdan afzal, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan ramazon oyidan tashqari ixtiyoriy ro‘zadan yaxshidir.

“Munofiqlik belgisi uchtadir: yolg‘on so‘zlash, va’dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish”. Sharhi: Umumbashariy axloqqa barchamiz ehtirom bilan yondashishimiz lozim. Umumbashariy axloq insonni kamolotga yetaklaydi. yolg‘on so‘zlash, va’dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish turli millat vakillariga birdek, uning g‘ayridinligini ajratmasdan yagona “inson” tushunchasini olg‘a surish va mustahkamlash nazarda tutiladi.

Hadislarni xalqimizga yetkazishda butun musulmon dunyosida tan olingan mufassirlar Zamaxshariy, At-Termiziy, Al-Buxoriylarning xizmatlari beqiyosdir. O‘zbek adabiyoti tarixida ham hadislarning g‘oyaviy mazmuni bilanyo‘g‘rilgan asarlar juda ko‘p. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari, Ahmad Yassaviy hikmatlari, Alisher Navoiyning she’riyati va nasriy asarlarida,

shuningdek, sharq allomalaridan Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheraziy, Sa'diy Sheraziy, Nasimiy, Fuzuliy va boshqa shoirlarning mumtoz merosida ham keng qo'llangan. Ular shoir bo'lish bilan birga so'z san'atkorlari hamdir. Iste'dod sohiblari mumtoz adabiyotni misli ko'rilmagan go'zallik, nafosat darajasiga olib chiqdilar. Ular so'zga jon bag'ishladilar. So'z ta'sirida his-tuyg'u, zavq-shavq paydo qilish orqali muxlislarga lazzat baxshida etdilar. Shuning uchun ham ular yaratgan asarlarning umri boqiyidir.

So'z san'atining, ayniqsa, badiiy so'zning qudrati beqiyosdir. Inson nutqiga fayz berib turuvchi so'z badiiy adabiyotda yanada ta'sirchan tusda namoyon bo'ladi. Ana shu so'z boyligini tushunib yetish, uning go'zalligini yosh avlodga his qildirish o'qituvchilarning mahoratiga bog'liq. Buning uchun o'qituvchidan ushbu sharqona o'qitish usullarini mukammal bilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Hadis – Ziyo uz.com.
2. library.samdu.uz
- 3 Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Buxoriy Hadis (A1-jomi as-Sahiyh). 1-jild.
4. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (bolalar adabiyoti). O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri. 303-b.